

I



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 3 - fevral

61-10-0-Q/22

Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2022-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1992-y., 1-son 45-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5666-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 102-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2009-y., 15-son 186-modda) talablari asosida, viloyat hududidagi bo‘sh turgan bino-inshootlardan oqilona foydalanish, ularga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq ta‘minlash hamda kutilayotgan xarajatlar bilan korxonalar tashkilot va muassasalarning ijara to‘lovidan tushadigan daromadlarni tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Davlat ko‘chmas mulklaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarining eng kam stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2021-yil 30-dekabrda 01/26-18-2212-son bilan kiritilib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2022-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining 1 kv.m uchun eng kam stavkalari 1 va 2-ilovalarga hamda ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi

koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari:

yil choragida kamida bir marta o‘zining tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini xatlovdan o‘tkazishlari;

foydalanilmayotgan davlat mulki to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning markazga o‘z vaqtida, to‘liq, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to‘g‘risidagi taqdim etilgan axborotning ishonchligi;

ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va sonini ataylab noto‘g‘ri qayd etilganligi, buning natijasida ijara to‘lovining yashirilishiga olib kelganligi uchun bevosita qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i (I.Nusurov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish;

ijaraga berilayotgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag‘larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

ijaraga beriladigan obyektlardan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara to‘lovi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini nazorat qilish;

ijaraga berilgan davlat mulkini har choraklik asosida xatlovdan o‘tkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to‘g‘risidagi e‘lonlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5666-son Farmoniga asosan ijaraga berilayotgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish bo‘yicha savdolar “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin;

viloyat hududida foydalanilmayotgan, bo‘sh turgan binolar va inshootlarni aniqlab, samarali foydalanilishini ta‘minlash maqsadida yuridik va jismoniy

shaxslarga belgilangan tartibda ijaraga berish vazifalari yuklatilsin.

“Toshkent haqiqati” gazetasi bosh muharriri (G‘.Sheraliyev) davlat mulki bo‘lgan noturar joy, bino-inshootlarini ijaraga berishda “Toshkent haqiqati” gazetasida e‘longa berilishida bepul joylashtirilishini ta‘minlasin.

5. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (R.Raimov), shahar va tuman hokimliklari, hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulkini hisobotini to‘g‘ri yuritish va budjetga qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi (I.Nusurov) bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ysinlar.

6. Shahar va tuman hokimlariga mazkur qarorning 3-ilovasidan kelib chiqib, mulkning joylashgan manzilini inobatga olgan holda hududiy zonalarni (1-2-3-4-zona) 2022-yil 31-yanvarga qadar belgilash yuklatilsin.

7. Viloyat hududida 2022-yilda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilansin.

8. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Toshkent viloyati hokimining 2021-yil 18-fevraldagi 86-son “Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2021-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror “Toshkent haqiqati” gazetasida bepul e‘lon qilinsin hamda rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari N. Sharipov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b.



Z.Mirzayev

Тошкент вилоят ҳокимининг
2022 йил 3 февралдаги
61-10-0-Q/22-сон қарорига
1-илова

1-илова

**Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2022-yilda 1 kv.m uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari
(Toshkent viloyati markazi Nurafshon shahriga)**

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1.	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	10 400
2.	Kimyoviy ishlab chiqarish	10 400
3.	Neft-kimyosanoati	10 400
4.	Mashinasozlik	10 400
5.	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	10 400
6.	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	10 400
7.	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	8 500
8.	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	8 500
9.	Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	10 400
10.	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	10 400
11.	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati (tokarlik xizmati)	10 400
12.	Mashina va uskunalarni ta‘mirlash	10 400
13.	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	10 400
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati		
14.	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	10 400
15.	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	10 400
16.	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	10 400
17.	Deraza va eshiklar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	31 300
18.	Qurilish materiallari sanoati	10 400
Engil sanoat		
19.	To‘qimachilik sanoati	10 400
20.	Tikuvchilik sanoati	10 400
21.	Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	10 400

22.	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	10 400
Oziq-ovqat sanoati		
23.	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	10 400
24.	Go'sht va sut mahsulotlari sanoati	10 400
25.	Baliq mahsulotlari sanoati	10 400
26.	Tegirmonchilik sanoati	10 400
27.	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	8 500
28.	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	10 400
Sanoatning boshqa tarmoqlari		
29.	Tibbiyot sanoati	10 400
30.	Poligrafiya sanoati	25 400
31.	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	12 700
32.	Sanoatni xo'jalik boshqaruvi	29 300
Qishloq xo'jaligi		
33.	O'simlikshunoslik (shu jumladan issiqxona xo'jaligi) 1 gektar yer maydoni uchun	4 172 400
34.	Chorvachilik va parrandachilik	5 000
35.	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	4 172 400
36.	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	2 712 500
37.	Veterinariya xizmatlari	10 400
38.	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	10 400
39.	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	4 172 400
Transport va aloqa		
40.	Yer ustida harakatlanuvchi umumfoydalanishdagi temir yo'l transporti	10 400
41.	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	10 400
42.	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 650
43.	Avtomobillarni yuvish	33 500
44.	Avtomobillarga yonilg'i quyish	33 500
45.	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	18 800
46.	Pochta aloqasi	10 400
47.	Kurerlik aloqasi	20 900
48.	Elektr-simli aloqa	20 900
49.	Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	87 700
Qurilish		
50.	Qurilish	10 400

51.	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	10 400
52.	Plastik deraza va eshiklar ishlab chiqarish	61 400
Savdo va umumiy ovqatlanish		
53.	Ulgurji savdo	29 300
54.	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	75 100
55.	Chakana savdo	29 300
56.	Umumiy ovqatlanish	29 300
57.	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast-fud)	45 800
58.	Kitob do'konlari	4 100
59.	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	29 300
60.	Xalq xo'jaligi savdo-xarid mahsulotlari dallollik xizmatlari	45 800
61.	Moddiy texnika ta'minoti va yetkazib berish	29 300
62.	Ma'lumot-hisoblash xizmatlari	29 300
63.	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish	29 300
64.	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	29 300
65.	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	29 300
66.	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	29 300
67.	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	52 200
68.	Tahririyat va nashriyotlar	16 800
69.	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	16 800
70.	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	16 800
71.	Mehmonxona xo'jaligi	33 400
72.	Umumiy yashash joylari	26 000
73.	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	16 800
74.	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	25 200
75.	Lombardlar	37 800
76.	Hammomlar	50 300
77.	Saunalar va basseynlar	100 200
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot		
78.	Sog'liqni saqlash	20 900
79.	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	20 900
80.	Fitobar	14 500
81.	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	33 400
82.	Jismoniy tarbiya va sport	10 400

83.	Dorixonalar	16 800
84.	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	35 200
85.	Ijtimoiy-dorixonalar	14 900
Ta'lim		
86.	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash (o'quv kurslari bilan)	16 800
87.	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	13 100
88.	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500
89.	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	10 400
90.	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	7 400
91.	Madaniyat va san'at	29 300
92.	Ko'rgazmalar	22 600
93.	Maktabdan tashqari tarbiya	8 500
94.	Madaniyat va dam olish bog'lari	20 900
95.	Botanika bog'lari va zooparklar	20 900
96.	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	20 900
97.	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	33 400
98.	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	12 700
99.	Avtomaktablar	18 600
Moliya-kredit faoliyati		
100.	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	29 300
101.	Auditorlik faoliyati	29 300
102.	Bank faoliyati	29 300
Faoliyatning boshqa turlari		
103.	Sug'urta va notarial xizmatlar	29 300
104.	Sud va yuridik xizmat muassasalari	25 200
105.	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	25 200
106.	Jamoatchilik birlashmalari	8 500
107.	Omborxonalar	29 300
108.	Davlat tashkilotlariga ofis	12 700
109.	Xususiy tashkilotlarga ofis	45 800
110.	Arxiv xizmati	12 700
111.	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan, vulkanizatsiya)	33 400
112.	Laboratoriyalar	20 900
113.	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	83 900
114.	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida oylashgan savdo do'konlari	45 800

115.	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shaxobchalari	40 100
116.	Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar)	45 800
117.	Bankomatlar	418 100
118.	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	29 300

**) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 30-iyundagi 07/10-41-son majlis Bayonnomasining 11-bandiga muvofiq, mulkiy shaklidan qat’iy nazar dorixona muassasalarining filiallari QVP binolarida faoliyat ko‘rsatayotganligi uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrda 02/1-74-sonli topshirig‘iga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Savdo boshqarmasining tarkibiy qismlari uchun yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qism va muassasalari hududlarida joylashgan ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganda ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

*****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 24-iyuldagi 02/107-2670-sonli topshirig‘iga muvofiq “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati” O‘zLiDePning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Fergan, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar (shu jumladan, Mirobod tuman) Kengashlari, shuningdek, “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun partiya balansidagi tegishli davlat mulklaridan foydalanganlik uchun 2014- yil 1-avgustdan ijara to‘lovining ”nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

******) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 834-sonli qaroriga asosan davlat mulklari, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashgan davlat mulklari O‘zbekiston yoshlar itifoqiga a‘zo bo‘lgan yosh tadbirkorlarga tuman yoki shaxar yoshlar itifoqining tafsiyasiga asosan besh yilgacha bo‘lgan muddatga ijara haqi “nol” stavkada belgilanadi.*

*****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-avgustdagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan Olimpiada chempionlari va sovrindorlariga O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasining tafsiyasiga asosan aholi gavjum hududlaridan xususiy sport tashkilotlari uchun davlat mulki va yer uchastkalari ajratiladi hamda sport yo‘nalishini saqlab qolish sharti bilan “nol” stavkada ijaraga beriladi.

*****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagi 609-20-sonli qaroriga muvofiq, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi bino-inshootlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni vazirlikning tizim tashkilotlariga ijara shartnomasi asosida berilishida ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilanadi.

Тошкент вилоят ҳокимининг
2022 йил 3 февралдаги
61-10-0-Q/22-сон қарорига
2-илова

2-ilova

Toshkent viloyatida Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2022-yilda 1 kv.m uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (viloyatning qolgan tuman va shaharlarga)

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1.	Yoqilg'i ishlab chiqarish	7 600
2.	Kimyoviy ishlab chiqarish	7 600
3.	Neft-kimyosanoati	7 600
4.	Mashinasozlik	7 600
5.	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	7 600
6.	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	7 600
7.	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	6 300
8.	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	6 300
9.	Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	6 300
10.	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	7 600
11.	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati (tokarlik xizmati)	7 600
12.	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	7 600
13.	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	7 600
O'rmon, yogochni qayta ishlash va sellyuloza-qogoz sanoati		
14.	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	7 600
15.	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	7 600
16.	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	7 600
17.	Deraza va eshiklar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	23 200
18.	Qurilish materiallari sanoati	7 600
Yengil sanoat		
19.	To'qimachilik sanoati	7 600
20.	Tikuvchilik sanoati	7 600
21.	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	7 600
22.	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	7 600
Oziq-ovqat sanoati		

23.	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	7 600
24.	G o'sht va sut mahsulotlari sanoati	7 600
25.	Baliq mahsulotlari sanoati	7 600
26.	Tegirmonchilik sanoati	7 600
27.	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	6 300
28.	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	7 600
Sanoatning boshqa tarmoqlari		
29.	Tibbiyot sanoati	7 600
30.	Poligrafiya sanoati	21 800
31.	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	9 300
32.	Sanoatni xo'jalik boshqaruvi	21 800
Qishloq xo'jaligi		
33.	O'simlikshunoslik (shu jumladan issiqxona xo'jaligi) 1 gektar yer maydoni uchun	3 094 900
34.	Chorvachilik va parrandachilik	3 800
35.	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	3 094 900
36.	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	2 011 900
37.	Veterinariya xizmatlari	7 600
38.	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	7 600
39.	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	3 094 900
Transport va aloqa		
40.	Yer ustida harakatlanuvchi umumfoydalanishdagi temir yo'l transporti	7 600
41.	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	7 600
42.	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 100
43.	Avtomobillarni yuvish	21 900
44.	Avtomobillarga yonilg'i kuyish	28 200
45.	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	14 100
46.	Pochta aloqasi	7 600
47.	Kurerlik aloqasi	15 400
48.	Elektr-simli aloqa	15 400
49.	Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	65 100
Qurilish		
50.	Qurilish	7 600
51.	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	7 600
52.	Plastik deraza va eshiklar ishlab chikarish	36 500

Savdo va umumiy ovqatlanish		
53.	Ulgurji savdo	21 800
54.	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	55 600
55.	Chakana savdo	21 800
56.	Umumiy ovqatlanish	21 800
57.	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	31 400
58.	Kitob do'konlari	3 200
59.	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	21 800
60.	Xalq xo'jaligi savdo-xarid mahsulotlari dallollik xizmatlari	34 000
61.	Moddiy texnika ta'minoti va yetkazib berish	21 800
62.	Ma'lumot-hisoblash xizmatlari	21 800
63.	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish	21 800
64.	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	21 800
65.	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	21 800
66.	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	21 800
67.	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	38 600
68.	Tahririyat va nashriyotlar	12 400
69.	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	12 400
70.	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	12 400
71.	Mehmonxona ho'jaligi	24 700
72.	Umumiy yashash joylari	18 900
73.	Maishiy xizmatning noishlab chikarish turlari	12 400
74.	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	18 900
75.	Lombardlar	28 000
76.	Hammomlar	37 300
77.	Saunalar va basseynlar	74 400
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot		
78.	Sog'likni saklash	15 400
79.	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	15 400
80.	Fitobar	10 700
81.	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshkalar)	24 700
82.	Jismoniy tarbiya va sport	7 600
83.	Dorixonalar	12 400
84.	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	19 600

85.	Ijtimoiy-dorixonalar	10 000
Ta'lim		
86.	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash (o'quv kurslari bilan)	12 400
87.	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	10 100
88.	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	6 300
89.	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	7 600
90.	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	5 800
91.	Madaniyat va san'at	21 800
92.	Ko'rgazmalar	17 500
93.	Maktabdan tashkari tarbiya	6 300
94.	Madaniyat va dam olish bog'lari	15 400
95.	Botanika bog'lari va zooparklar	15 400
96.	Televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari	15 400
97.	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	24 700
98.	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	9 300
99.	Avtomaktablar	11 000
Moliya-kredit faoliyati		
100.	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	21 800
101.	Auditorlik faoliyati	20 400
102.	Bank faoliyati	21 800
Faoliyatning boshqa turlari		
103.	Sug'urta va notarial xizmatlar	21 800
104.	Sud va yuridik xizmat muassasalari	18 900
105.	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	18 900
106.	Jamoatchilik birlashmalari	6 100
107.	Omborxonalar	21 800
108.	Davlat tashkilotlariga ofis	9 300
109.	Xususiy tashkilotlarga ofis	34 000
110.	Arxiv xizmati	7 800
111.	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan vulkanizatsiya)	24 700
112.	Laboratoriyalar	15 400
113.	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	62 100
114.	Madaniy meros ob'ektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	34 000
115.	Madaniy meros ob'ektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	29 800

116.	Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar)	34 000
117.	Bankomatlar	310 100
118.	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	18 900

**) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009-yil 30-iyundagi 07/10-41-son majlis Bayonnomasining 11-bandiga muvofiq mulkiy shaklidan qat’iy nazar dorixona muassasalarining filiallari QVP binolarida faoliyat ko‘rsatayotganligi uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrdagi 02/1-74-sonli topshirig‘iga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Savdo boshqarmasining tarkibiy qismlari uchun yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qism va muassasalari hududlarida joylashgan ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganda ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

*****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 24-iyuldagi 02/107-2670-sonli topshirig‘iga muvofiq “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar xarakati” O‘zLiDePning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Fergan, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar (shu jumladan, Mirobod tuman) Kengashlari, shuningdek “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun partiya balansidagi tegishli davlat mulklaridan foydalanganlik uchun 2014 yil 1-avgustdan ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilanadi.*

******) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrdagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 834-sonli qaroriga asosan davlat mulklari, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashgan davlat mulklari O‘zbekiston yoshlar itifoqiga a‘zo bo‘lgan yosh tadbirkorlarga tuman yoki shahar yoshlar itifoqining tafsiyasiga asosan besh yilgacha bo‘lgan muddatga ijara haqi “nol” stavkada belgilanadi.*

******) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-avgustdagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan Olimpiada chempionlari va sovrindorlariga O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va*

sport davlat qo‘mitasining tafsiyasiga asosan aholi gavjum hududlaridan xususiy sport tashkilotlari uchun davlat mulki va yer uchastkalari ajratiladi hamda sport yo‘nalishini saqlab qolish sharti bilan “nol” stavkada ijaraga beriladi.

******) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagi 609-20-sonli qaroriga muvofiq, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi binoshootlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni vazirlikning tizim tashkilotlariga ijara shartnomasi asosida berilishida ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilanadi.*

Тошкент вилоят ҳокимининг
2022 йил 3 февралдаги
61-10-0-Q/22-сон қарорига
3-илова

3-илова

Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koefitsentlar

1-Hududiy zonalar koefitsenti

T/r	Shahar tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonlar koefitsenti
1.	Nurafshon shahri Olmaliq shahri Angren shahri Chirchiq shahri Bekobod shahri Yangiyo'l shahri Ohangaron shahri Zangiota tumani Toshkent tumani Qibray tumani Bo'stonliq tumani	1-2-3-4 zona	1-zona -3,0 2-zona -2,9 3-zona -2,8 4-zona -2,7
2.	Yangiyo'l tumani O'rtachirchiq tumani	1-2-3-4 zona	1-zona -2,8 2-zona -2,7 3-zona -2,6 4-zona -2,5
3.	Qolgan tumanlar (jami 9 ta)	1-2-3-4 zona	1-zona -2,6 2-zona -2,5 3-zona -2,4 4-zona -2,3

2-Qurilish turi bo'yicha koefitsenti (Kq):

- alohida turgan bino – 1,5;
- binoning ichki qismida joylashagan va taqab qurilgan – 1,0;
- binoning yuqori qismida (cherdak, boloxona) – 0,7;
- yerto'la (yarim yerto'la) – 0,5;
- betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar – 0,3.

3-Tutashib ketgan hududdan foydalanish koefitsenti (Kh):

- yer maydoni va binoning ichki o'tish yo'laklari mavjud bo'lganda – 0,8.
- yer maydoni va binoning ichki o'tish yo'laklari mavjud bo'lmaganda – 0.

4-Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsenti (Ko):

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda – 0,5;
- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda – 0,4;
- radio, uyali va peydjing aloqa antenalari o‘rnatilganda – 0,5.

Binolar va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini hisoblab chiqish quydagi tarzda aniqlanadi:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

bunda:

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

E_s – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.